

**TURKISTON MILLIY MATBUOTI SAHIFALARIDA MAKTAB
VA MAORIF MASALASINING YORITILISHI**

Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Gumanitar fanlar”
fakulteti 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Bilamizki, jadid ma`rifatparvarlarining asosiy vazifasi aholiga ma`rifat ulashish, ularni jaholat botqog`idan qutqarish edi. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda chop etilgan milliy matbuot sahifalarida xalqni savodini oshirish sohasida maktab va maorif tizimining o`rni, bu sohaning amaldagi kamchiliklari, sohada amalga oshirilishi kerak bo`lgan vazifalar keltirilgan maqolalar misollar orqali ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so`zlar: matbuot, maktab, “Taraqqiy”, jadid, maorif, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg`ona”, madrasa

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda milliy mustaqillik uchun kurash, demokratik o`zgarishlarni amalga oshirish, xalqni jaholat va bilimsizlikdan qutqarish maqsadida jadid ma`rifatparvarlari keng faoliyat olib borganlar. Bu maqsadlariga erishish yo`lida matbuot katta kuch ekanligini ular yaxshi anglaganlar. Bu yo`nalishda o`lkadagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Maxmudxo`ja Bexbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho`lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo`jaevlar milliy matbuotning shakllantirishda muhim rol o`ynadilar. Turkistonda milliy nashrlar yaratilishida Ismoilbey Gaspirinskiy tomonidan asos solingan “Tarjimon” gazetasi katta turtki bo`lgan. Chunki yurtimiz jadidlari “Tarjimon” bilan yaqin tanish bo`lishgan va uni doimiy ravishda mutoala qilib kelishgan. “Jadid” arabcha yangi degan ma`noni anglatadi. Barcha jadidlar qatori Turkiston jadidlari ham o`zining lug`aviy ma`nosiga mos ravishda o`lkada yangiklar yaratishga harakat qilishgan. Turkistonning mustaqilligi uchun, xalqning savodli bo`lishi uchun harakat qilgan jadidlar, bu maqsadlarni amalga oshirishda matbuot va teatr katta ta`sir o`tkazishini bilishgan. Shuning uchun ham milliy nashrlarda chop etilayotgan maqolalarida doimiy ravishda xalqni maktablar ochishga, farzandlarini o`qitib, savodli qilishga, ayollar va qizlar ta`limiga katta e`tibor berishga da`vat etishgan. “Sadoi Turkiston” gazetasi mamlakatda yangi usul maktablarini yaratishga xissa qo`shishni o`zining asosiy maqsadlaridan biri deb qaradi. Shuning uchun ham har bir sonida bu masala yoritilgan qator maqolalarni chiqarib turadi. Gazetaning mavzu juda keng bo`lib, barcha hayotiy masalalarni ko`tarib chiqardi. “Sadoi Turkiston” yangi usuldagi maktablar ochish bilangina ko`p narsaga erishib bo`lmashligini yaxshi tushungan, shu bois islohotlar doirasini yanada kengaytirish va ayn

iksa, xalq maishiy turmushiga chuqurroq kirib borishga bel bog`lagan. Gazeta birinchi sonlaridan xashamdor to`ylar, serxarajat va sermashakat azadorlik marosimlari boisidan yersuv, xovli joylarni sotishlarga karshi jiddiy chiqishlar qildi.[2: 125-bet]

“Sadoi Turkiston” gazetasi “Jamiyat qanday ochilur” nomli maqolasida: “Maorif va madaniyat bog`chasining birinchi darbozasi maktabdur[1]”, - deb taraqqiyot yo`li maktab ekanligini ko`rsatadi. Gazeta o`z sahifalarida zamon talablariga javob beradigan yangi maktablarini huquqiy tomondan himoya qilish uchun jamiyat tashkil etish muammosini ko`tarib chiqadi.

“Sadoi Turkiston” xalq manfaatlarini himoya qilgan asarlarni va ularning mualliflarini ham targ`ib qilgan. Xususan, Fitrat tomonidan maktablar uchun yaratilgan “Muxtasari tarixi islom”, Rojjiyning “Turkiston adabiyoti” majmuasi nashrga berilganligini mushtariylarga ma`lum qilgan. “Ko`knori” intermediyasi, “Kengash majlisi” pyesasi yozilayotganini mamnuniyat bilan bildiradi. O`z sahifalarida: “Kerak maktablar, kerak yangi va mukammal maktab kitoblari, millatning eng muhtoj bo`lib turg`on narsalari bo`lib bulardan har biri milliy va ijtimoiy bir marazg`a shifoli davodur[2]”, - deb yangi maktablar, mukammal darsliklar kerakligini bot-bot takrorlab turgan.

“Ko`ngilsiz hollar” sarlavhasi ostidagi maqolasida esa Turkiston xalqining taraqqiyotiga to`siq bo`layotgan sabablar sanab o`tiladi: “Eng tuban tarbiyadan boshlab o`rta va oliy darajalargacha matlub samaralarni beradurg`on maktab va madrasalarning yo`qligi; bola tarbiya qilushni biladigan muqtador onalarimizning yo`qligi va huquqi nisvon zolim erlarning oyoqlari ostida toptalub kelganligi; ulumi islomiya o`rniga xurofot, sharh va hoshiyalar o`qitilmog`i; ulamolarimizning qusurlaridagi o`zlarining shaxsiy foydalari uchun ommani, umum millat foydasiga munofiq bo`lg`on bir ishga taklif etishlari; milliy matbuotning yo`qligi”. [3]

Gazeta: “Bunday isrof bo`layotgan sarmoyani millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan madaniy sohani rivojlantirishga yo`naltirish, shuningdek, yoshlarni zamonaviy maktablar va ilgor mamlakatlarda o`qitish, mamlakatda oliy maktab va madrasalar ochish, zamonaviy asosda tashkil etilgan hunarmandchilikni rivojlantirish, o`lka tabiiy jug`rofiyasini hisobga olgan holda zavod va fabrikalar kurish, xalqning texnikaviy madaniyati va bilimlarini ko`tarish, jahon mamlakatlari bilan Rossiyaning hamkorligida turib iqtisodiy-madaniy muomalalarga kirishish, tarixiy ijobiy an`analar va tajribalarni tiklash va jonlantirish...”[4] kabi masalalarni ko`rib chiqqan. 1912-yil 11-martda asos solingan “Buxoroi sharif” nomli gazeta birinchi kunlardan boshlab ko`pchilikning diqqatini o`ziga jalb etadi. Lekin gazeta tojik tilida bo`lganligi uchun o`zbek tilida ham gazeta chiqarish kerak edi. Shuning uchun 1912-yil 14-iyunda “Turon” nomli gazeta nashr etildi. Bu gazetalarda siyosiy masalalar

yoritilmagan. Lekin ushbu gazetalarning asosiy maqsadlari o`quvchilar qo`liga chiroq berib, ularning ongini yoritishdan iborat edi. Gazeta sahifalarida ilm-u fan, maorif, madrasa, maktablarning ahvoriga doir materiallar berib borilgan va ularni isloh qilish yo`llari ko`rsatilgan. «Buxoroi' sharif» va «Turon» gazetalarini ijtimoiy nuqsonlarni ham doimo tanqid ostiga olgan. [5] Yuqoridagi masalalar “Sadoi Farg`ona” sahifalarida ham ilgari surilgan. Gazeta ilgari surgan asosiy muammolardan biri “Usuli jadid”ni joriy etish, ya’ni maktab sohasini isloh qilish bo`lgan. “Sadoi Farg`ona” sahifalarida Saidaxmad Vasliy nomi ostida chop etilgan maqola va she`rlari ham mana shu mavzularga bag`ishlangandi. Uning gazeta sahifalarida chop etilgan “She`r va ilmiy balog`at”, “Taraqqiy yo`li”, “Jarida va usuli jadid”, “Madaniyat” nomli maqolalari fikrimiz dalilidir. “Usuli jadid” maqolasida u yangi usuli eski o`qitish tizimidan afzalligini soda tilda tushintirib beradi. “Emdi yangi tartibda uqitmoqni ma`nosi shulki, maktabga kirgan bolaga kursatib saboq berish bilan bir vaqtda harflarni yozib kursatur. Yangi tartibda o`qigan bola 4-5 oyda o`qimoq va yozmoqni o`rganur. Qadimda maktablarimizda kalomi sharifni tadvijisiz o`rganib, chor kitob -Navoiy, Xo`ja Xofiz, Mirzo Bedil kitoblarini uqib 10-12 yil ovora bo`lib, bu kitoblardan birontasini ma`nosini bilolmas edilar[6]”. Saidaxmad Vasliyning bu maqolasiga ko`ra eski tartibda 10-12 yil o`qigan o`quvchilar eng muhim bo`lgan bilimlardan behabar qolish bilan birga bunday usulda ta`lim beradigan madrasalarda o`qiganlarning o`rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlaridan uzoq ekanligini ochiqchasiga aytib o`tadi. Shokir Muxtorov tomonidan yozilib 1914-yil 1-sonida bosilgan “Islohnim niman boshlarga” sarlavhasi ostidagi maqolada: “Men Ovrupo xalqining bu darajadagi taraqqiy va tolelarining birinchi sababini va bosh sababini ko`p axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarning mukammaligidan boshqa sabab topolmadim»[6:166], -deb yozadi.

“...binobarin islohotimizning maktab ibtidoiylaridan boshlamoq darkor deb hisoblayman”,- deydi Shokir Muxtorov. U o`lkadagi maktablar va madrasalar kamchiliklari, ularning zamon talablaridan orqada qolayotganiga kuyunib: “Madrasa talabalariga tarixiy milliya va hisob o`qitmoq odati bizda yo`q yoki aslo yo`q. Jug`rofiya va riyozatga sabr qiluvchi darslarni albatta mudarrislarimiz uqimaydilar. Shogirdlariga uqitmaydurlar... Ammo ibtidoiy rus shogirdi tamoman boshqadur. U o`zining ona tili o`z qoidalarini biladur. Jugrofiya, hisob va tarix milliyasidan xabardor”. Bu fikrlari orqali muallif madrasalarda milliy tarix, hisob ilmining o`qitilmasligi, ayrim sohalarni soha mutaxassisi bo`lmagan muddarrislar o`tishi, soha mutaxassisi bo`lgan kadrlar yetishmasigini ochiq aytadi. Mazkur muammolarga bag`ishlangan maqolalarni “Sadoi Fargona” sahifalarida ham ko`plab uchratish mumkin. Masalan, Mulla Abdullabek Xoji o`g`lining “Isloh al-Isloh”, Sh.Muxtorovning “Isloh”, X.X.Niyoziyning “Maktabu dariletim”(60-son),

Ashurali Zoxiriyning “Ona tili” (3-son), Yaxyo Qorining “Shaxrixonda usuli jadid maktablari”, Dadamirza Qorining “Hozirgi eski va yangi maktablarimiz”, Mavloniyning “O`qimoqdin maqsad nima?” va hokazolar shular jumlasidandir. [6:167]

Maxmudxo`ja Bexbudiyning “Shuxrat” gazetasi 9-sonida chop etilgan: “...So`ngra bularning Misrdan kelgani olimi diniyi zamoni, Peterburgdan kelgani olimi dunyoviy zamoni bo`lib, din va millatimizning dunyo va oxirat obod bo`lishimizga sabab bo`ladurlar. Peterburgdagi tibbiya, huquqiya, hakimiya, ta`limiya va adliya maktablarida o`qig`onlarimiz, tabib, muallim, axli huquq va hakim bo`lib, davlat ishlariga va hukumat mansablariga orolashib, bizga naf yetkurarlar. O`z i-mizdan doxtur, tabib, gimnaziya muallimi va advokat, injener va chlen sud va hokim va uyazniy nachalnik bo`lsa yomon bulurmi? Albatta, yaxshi bular. Bu ilmlard an o`qib yuqorida bayon bo`lg`on podshoxlik mansablariga kirib, din va millat, vatan va davlatga xizmat qilmoqni shariat aslo man qilmaydir. Rusiya zakunlari ham qabul qilur”[6:225], - deb bildirgan fikrlaridan farzandlarni chet ellarda huquq, tabobat, muallimlik kabi sohalarda o`qitish orqali soha mutahassislarini tayyorlab, ularni o`lka uchun foydasi tegishini ta`minlash kerak ekanligini ta`kidlaydi. Behbudiy kadrlar ahamiyatiga to`xtalib: “Buxoro maktablarining islohi uchun Kavkaz, Tatariston va Istanbulni islomiy o`rta maktablarini tamom qilgan Buxoriy kerakdir, Buxoro madrasasining islohi va taraqqiysi uchun Hijoz, Misr diniyalarinda xatmi qilgan kishilar kerakdir. Buxoroda tijorat, ziroat va sa noatni taraqqiy qildirish uchun Rusiyaning O`rta va oliy maktablarida xatm ulum zam oniya etgan muxandis muqtasid (zamoni olim)lar kerakdir... [6:226]”, - deb yozadi. Turkistonning ilk milliy matbuoti bo`lgan “Taraqqiy” gazetasi esa dastlabgi sonidan boshlab har bir maqolasida maorif tizimi va maktablarni isloh etish, islom dining qoidalariga amal qilish kerakligi g`oyalari asosiy o`rin egallaydi. “Taraqqiy” o`zining faoliyatining asosini rivojlanib borayotgan mamlakatlarning tajribalarini qullash orqali tobora orqaga ketayotgan millatni bu yo`ldan asrash uchun kurashish kerakligi g`oyasi tashkil etadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, XX asrda yuzaga kelgan barcha milliy ruhdagi nashrlar o`z sahifalarida doimiy ravishda xalqni jaholat botqog`idan qutqarish, farzandlarni chet ellarda o`qitish, yangi usul maktablari tarmoqlarini kengaytirish, o`lkada milliy tarix, tibbiyot, hisob, huquq kabi o`ta muhim sohalarning rivojlanishini ta`minlash, milliy kadrlar tizimini tartibga solish, darsliklar soni va sifatini oshirish kabi dolzarb muammolarni ko`tarib chiqish orqali bu masalalarning yechilishiga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]Sadoi Turkiston, 1914, 28-iyun.

[2]Halimova S.A. Ubaydulla Asadullaxo`jayev va Sadoi Turkiston. Monografiya.

Toshkent. Universitet. 2021. 89-bet

[3] Sadoi Turkiston, 1915, 6-mart

[4] Ibrohim Gafur. Milliy hayollar va “Sadoi Turkiston” “O`zbekiston adabiyoti va san`ati”, 1994, 11-mart

[5] Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870 — 1924 yillar) Toshkent.

O`zbekiston SSR davlat nashriyoti. 1959. 85bet

[6] Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). Toshkent. “Akademiya”. 2000 165-bet